

9-SINF. JAHON TARIXI
CHSB-2

DEMO variant

Sinf _____

Sana: _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. J. Kalvin ta'limotining asosi hisoblangan shiorni toping. (Bilish 2,5 ball)

- A) «Ozodlik yoki o'lim!» B) «Isoni qutqar!»
C) «Duo o'qi va ishla!» D) «Urush – muammoning yechimi emas!»

2. Qanday omil yangi davr boshlarida Angliyada soliqlar tushumini keskin oshirgan? (Bilish 2,5 ball)

- A) Hindistonning bosib olinishi B) boj solig'ining joriy etilishi
C) savdo va sanoatning rivojlanishi D) kapitalning ichki sanoatga yo'naltirilganligi

3. Fransiya qiroli Lyudovik XVI General shtatlar chaqirib, undan nimani so'raydi? (Bilish 2,5 ball)

- A) yakobinchilarni hibsga olish B) jirondachilarni jazolash
C) boj solig'ini bekor qilish D) yangi soliqlar joriy qilish

4. Angliyada Karl I davrida kimlar davlat ishlaridan butunlay chetlatiladi? (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Savdogarlar; 2. Yangi dvoryanlar; 3. Hurfikir dindorlar; 4. Musulmonlar; 5. Tyurdorlar sulolasi qarindoshlari; 6. Korruptsiyada ayblangan amaldorlar.

- A) 2,3,5 B) 2,4,6 C) 1,2,3 D) 1,3,5

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	Germaniya yerlarining rivojlanishiga O'ttiz yillik urush hech qanday ta'sir ko'rsatmadi, balki Muqaddas Rim imperiyasi imperatori maqomini oshirdi		
2	Yetti yillik urush yakunida imzolangan sulh Germaniya tarqoqlik holatini uzoq davrga mustahkamlab qo'ydi		
3	XVI asrda Germaniyada protestantizm va isloh qilingan katolitsizmning qarortopishi bir qator boshqa modernizatsiya jarayonlari uchun imkoniyat yaratdi		
4	Germaniya yerlarida knyazlarning aholiga katolik, lyuteranlik, kalvinistik diniyoqimlardan birini majburan singdirishi imkoniyati knyazlar qo'lidagi yana bitta omil edi		

- A) yo'q, yo'q, ha, ha B) ha, yo'q, yo'q, ha
C) yo'q, ha, ha, yo'q D) ha, ha, yo'q, yo'q

6. Quyidagilardan Amerika qit'asini kashf etgan (a) va unga nomi berilgan (b) sayyohlarni belgilang. (Qo'llash – 4,5 ball)

- A) a-Xristafor Kolumb, b- Amerigo Vespuchchi
B) a-Amerigo Vespuchchi, b-Xristafor Kolumb

- C) a-Amerigo Vespuchchi, b-Abel Tasman
D) a-Abel Tasman, b-Xristafor Kolumb

7. Angliyadagi fuqarolar urushidan so'ng parlament tomonidan o'tkazilgan islohotlarni belgilang. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Zodagon yer egalari taxt foydasiga to'lanadigan feodal soliqlardan ozod qilindi; 2. Parlament qirol daromadini nazorat qiladigan bo'ldi; 3. Zodagonlar yerlari ularning xususiy mulkiga aylandi; 4. Savdogarlar savdo yuritishga ruxsatnoma sotib olmaydigan bo'ldi; 5. Diniy muassasalar davlatga bo'ysunmaydigan bo'ldi; 6. Cherkov parlamentga bo'ysundirildi; 7. Qirol, uning tarafdorlari va yepiskoplar yerlari o'zlarida qoldirildi; 8. Dehqonlar mulki daxlsiz deb qilindi.

- A) 1,3,5,7
B) 2,4,6,8
C) 1,3,4,6
D) 2,5,7,8

8. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	XVIII asrning ikkinchi yarmidan Rossiyada krepostnoy zulmning yanada kuchayishi Yelizaveta Petrovna va Yekaterina II qonunlarida o'z aksini topdi		
2	Rossiyada krepostnoy zulmning kuchayishi unga qarshi Yemelyan Pugachyov boshchiligidagi dehqonlar urushi va quyi qatlamlarning turli qo'zg'olonlariga sabab bo'ldi		
3	XVI asrning o'rtalariga kelib Moskva Rusining geosiyosiy holatini uning imperiyaga aylanganligi beligilab berdi		
4	Rus yerlariga ko'chmanchilar bosqinlari katta zarar keltirganligi sababli XVI asrda Rus podsholari, avvalo, G'arbdan kelgan xavfni bartaraf qilishga intildilar		

- A) yo'q, yo'q, ha, ha
B) ha, yo'q, yo'q, ha
C) yo'q, ha, ha, yo'q
D) ha, ha, yo'q, yo'q

9. Quyidagi ingliz qirollarini ularga oid ma'lumotlar asosida moslashtiring. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Uning davrida qirol va parlament o'rtasidagi nizo yanada keskinlashdi;
2. Uning davrida absolutizmning inqirozi kuchayib, burjua inqilobi uchun iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy asoslar shakllangan;
3. Uning davrida Angliyada reformatsiya o'z nihoyasiga yetgan;
4. Cherkov va toifalar vakillaridan iborat parlamentni o'ziga bo'ysundirgan ingliz qirollari edi.
a) Karl I; b) Yelizaveta I; c) Yakov I; d) Genrix VIII Tyudor.

- A) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
B) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d
C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c
D) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b

10. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosa to'g'ri berilgan javobni toping. (Mulohaza –5,5 ball)

Vogea	Natija
-------	--------

1. XV–XVII asrlarda yevropaliklar tomonidan yangi savdo yo‘llari ochildi	Buyuk geografik kashfiyotlar sodir bo‘ldi
2. Savdo yo‘llari 1453-yili Konstantinopolni zabt etgan turklar tomonidan yopib qo‘yildi	Yevropa G‘arbdan keladigan tovarlardan ajralib qoldi
3. Kolumb 1493–1504-yillar oralig‘ida o‘zi Hindiston deb hisoblagan hududga yana uchta ekspeditsiya uyushtirdi	Kichik Antil orollari, Puerto-Riko oroli, Yamayka, Trinidad va Markaziy Amerika hamda Janubiy Amerikaning shimoliy qirg‘oqlari kashf etildi

- A) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri; 3-noto‘g‘ri
B) 1-to‘g‘ri, 2- noto‘g‘ri; 3- to‘g‘ri
C) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri; 3-noto‘g‘ri
D) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri; 3-to‘g‘ri